CHORVACHILIK SOHASIDA YEM-XASHAK BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Ramanova D.R.
Qoraqalpog’iston Respublikasi, To’rtko’l tumani 75-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi geografiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada chorvachilik sohasida yem-xashak bazasini mustahkamlashning asosiy yo’nalishlari yoritilgan

Kalit so’zlar: yem-xashak ekinlari, biomassa, reproduktiv ko’rsatkich, rotatsion tizim, degredatsiya, seleksiya-naslchilik.

Abstract: This article highlights the main directions for strengthening the fodder base in the livestock sector.

Keywords: forage crops, biomass, reproductive performance, rotational system, degradation, selection and breeding.

Аннотация: В данной статье освещены основные направления укрепления кормовой базы в животноводстве.

Ключевые слова: кормовые культуры, биомасса, репродуктивные показатели, ротационная система, деградация, селекция и племенное дело.

Yaylov chorvachiligida mahsuldorlikni aniqlovchi omillar ko‘p qirrali bo‘lib, ular biologik, ekologik, tashkiliy va iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Yaylov sharoitida chorva mollarining mahsuldorligi, avvalo, tabiiy ozuqa bazasining holati va sifati bilan belgilanadi. Yaylov o‘simliklarining botanik tarkibi, biomassasi, oziq birligi miqdori, hazm bo‘luvchi oqsil va mineral moddalar ulushi hayvon organizmining energiya hamda ehtiyojlarini qondirish darajasini belgilaydi. Ozuqa yetishmovchiligi yoki uning sifatsizligi natijasida tirik vazn ortishi sekinlashadi, reproduktiv ko‘rsatkichlar pasayadi, mahsulot (sut, go‘sht, jun) hajmi kamayadi. Ayniqsa, qurg‘oqchil hududlarda mavsumiy ozuqa tanqisligi asosiy cheklovchi omil hisoblanadi. Shu bois yaylovlardan oqilona foydalanish, rotatsion tizimni joriy etish, degradatsiyaga uchragan maydonlarni tiklash va qo‘shimcha yem-xashak bazasini yaratish mahsuldorlikni barqaror oshirishning muhim shartidir. **Yem-xashak** ekinlari — chorva mollari va parrandalarga yem-xashak (ko‘kat, pichan, yem, silos) tayyorlash maqsadida ekiladigan o‘simliklar.

Mavjud adabiyotlar ma’lumotlariga ko’ra, respublikamizda chorvachilik tarmog‘ini barqaror rivojlantirish, ayniqsa cho‘l-yaylov chorvachiligi va qorako‘lchilik yo‘nalishida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bevosita mustahkam ozuqa bazasini yaratish, yaylovlardan oqilona foydalanish hamda ilmiy asoslangan seleksiya-naslchilik ishlarini keng joriy etish bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu borada quyidagi asosiy yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega:

Birinchidan, yem-xashak ekinlari maydonlarini kengaytirish va ularning hosildorligini oshirish zarur. Buning uchun beda, makkajo‘xori, suli kabi ozuqa ekinlarini ko‘proq ekish va agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish lozim.

Ikkinchidan, sug‘oriladigan yerlar hajmini oshirish orqali yem yetishtirish imkoniyatlarini kengaytirish kerak. Sug‘orish tizimlarini yaxshilash hosildorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Uchinchidan, mavjud yaylov va pichanzorlarni yaxshilash muhim hisoblanadi. Bunda degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash, o‘g‘itlash va meliorativ tadbirlarni amalga oshirish zarur.

To‘rtinchidan, chorva uchun ozuqa zaxirasini yaratish lozim. Pichan, silos va senaj tayyorlashni ko‘paytirish orqali yil davomida chorvani sifatli yem bilan ta’minlash mumkin.

© 2026 Worldly Knowledge.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Beshinchidan, zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or tajribalarni joriy etish orqali yem ishlab chiqarish samaradorligini oshirish talab etiladi.

Shu bilan birga, yem-xashak turlarini ko‘paytirish va ularni to‘g‘ri taqsimlash chorvachilik mahsuldorligini oshirishga xizmat qiladi.

Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasiga ajratilgan suv limiti so‘nggi yetti yilda, ya’ni 2017–2024-yillarda 7262,9 mln m kub dan 4716,0 mln m kub ga, ya’ni 64,9 foizga kamaygan. Suv resurslarining bunday kamayishi, o‘z navbatida Qoraqalpog‘iston Respublikasida tub agrar siyosatni amalga oshirishni, qishloq xo‘jaligida ekinlar tarkibida suv ko‘p talab etadigan ekin turlari o‘rniga suv kam talab ekinlariga almashtirishni, suv resurslarini tejash texnologiyalarini keng joriy etish, ya’ni xo‘jalik ixtisoslashuvini qayta ko‘rib chiqish hamda uning ilmiy- metodologik asoslarini ishlab chiqishni talab etadi.

Buni amalga oshirishda paxta, guruch va boshqa ko’p suv talab qiladigan ekinlarni kamroq suv talab qiladigan ekinlar, ayniqsa yem-xashak ekinlari bilan almashtirish katta amaliy ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda suv limiti ijtimoiyiqtisodiy jihatdan rivojlantirilayotgan Mo‘ynoq tumani, shuningdek yangidan tashkil etilgan Bo‘zatov va Taxiatosh tumanlarida biroz oshgan. Umuman olganda, keltirilgan statistik ma’lumotlar tahlili keyingi yillarda respublikamizda suv resurslarining kamayib borayotganligidan dalolat beradi .

Ma’lumki, so‘nggi yillarda Amudaryodan yetib keladigan suv miqdori yil sayin kamayib bormoqda. Shu sababli, respublikada suvni ko‘p talab etadigan ekin turlarini kamaytirish, uning o‘rniga suvni kam talab etadigan ekin turlariga, ya’ni

yem-xashak ekinlariga almashtirish hamda chorvachilik tarmog‘iga ixtisoslashtirish hozirgi kunning asosiy masalalaridan biridir. Ma’lumotlarga ko‘ra, mintaqada yiliga 1 ga maydonda sholi yetishtirish uchun 22400 m kub, beda 4000 m kub, makkajo‘xori 3200 m kub, paxta 4000 m kub, donli va yem-xashak ekinlar uchun esa 2000 m kub suv talab etiladi [34].

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yili Qoraqalpog‘istonda jami ekin maydonlarining 10,6 foiziga (27,9 ming ga) sholi va 33,2 foiziga (87,6 ming ga) paxta ekilgan [1.2-jadval]. Qishloq tumanlari tabiiy va iqlim sharoiti omillariga bog‘liq ekinlar tarkibi bo‘yicha bir biridan farqlanadi. 2024-yili Mo‘ynoq tumanining 31,9 foiz, Bo‘zatov tumanining 21,1 foiz, Nukus tumanining 20,1 foiz, Xo‘jayli tumanining 17,6 foiz, Qonliko‘l tumanining 17,0 foiz, Taxtako‘pir tumanining 15,2 foiz va Shumanay tumanining 14,0 foiz ekin yer maydonlariga sholi ekilgan.

Sholi yetishtirish uchun bedaga nisbatan 5,6 barobar, makkajo’xoriga nisbatan 7 barobar, donli va yem-xashak ekinlariga nisbatan 11,2 barobar ko‘p suv talab etiladi. Paxta ekini esa makkajo‘xoriga nisbatan 1,25 barobarga, donli va yem-xashak ekinlariga nisbatan 2,0 barobar ko‘p suv talab etadi. Demak, suv resurslari tanqis sharoitda respublikada ekin turlari tarkibini ilmiy jihatdan qayta ko‘rib chiqish ushbu muammoni hal etishning yagona yechimi bo‘lishi mumkin.

Agar, Qoraqalpog‘istonda sholi ekini maydonlarining 30 foiziga donli va yem-xashak ekinlarini ekish 27,3 foizga, 10 foiziga beda ekish 8,2 foizga va 10 foiziga makkajo‘xori ekish 8,6 foizga suvni kam talab etsa, paxta maydonlarining 20 foiziga donli va yem-xashak ekinlarini ekish 10 foiz hamda 10 foiziga makkajo‘xori ekish 2,0 foiz suvni kam talab etadi. Respublikada ekin tarkibining bunday o‘zgarishi jami limitdagi 56,1 foiz suvni tejashga imkon beradi. Bu hozirgi kunda qishloq xo‘jaligini suv bilan to‘liq ta’minlanishiga olib keladi.

© 2026 Worldly Knowledge.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haydarov Q, Maqmudov M.M., Yaylovshunoslik. (darslik) Toshkent. SamQXI, 2009, 261 bet
2.Каракалпакия. II том.Труды первой конференции по изучению производительных сил ККАССР. Изд. АН СССР. Ленинград, 1934. – 247 с 3. Shaptakov E.S. O'zbekistonda cho'l chorvachiligi, ekologiyasi, dolzarb muammolari. Cho'l chorvachilihi, ekologiyasi, yaylov agrofitosenozlarini yaratishning dolzarb muammolari'' respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-yil 27-oktyabr- Samarqand.
4.Укрупненные нормы водопотребности для орошения по природноклиматическим зонам СССР. Москва, 1984. – 359 с.
5. www.stat.uz
6. www.qrstat.uz
7. www.lex.uz

© 2026 Worldly Knowledge.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.